NAVOIY VILOYATI KARMANA TUMANI HOKIMI
Q A R O R I

Karmana 210605, "Talqoq" MFY, Tel: (79)-532-28-38, (79)-532-36-40, e-mail: karmana@nv.uz

2023 - yil 14 - noyabr 213-5-71-Q/23 Karmana tuman hokimiligi

2024-yilda Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydign shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi **"Aholi bandligi to‘g‘risida"**gi O‘RQ-642-sonli Qonunning 9-bobi hamdaO‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli Qaroribilan tasdiqlangan **"Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"**gi Nizomga asosan 2024-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining **"Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida"**gi Qonunning 6-25-moddalariga asosan;

Q A R O R Q I L A M A N

1. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni (keyingi o‘rinlarda-ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar deb yuritiladi) ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilashi va zaxiraga qo‘yishi lozim bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktyabrdagi **"Aholi bandligi to‘g‘risida"**gi 642-sonli Qonunning 39-moddasiga asosan tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun zaxiralangan ish o‘rinlari, xodimlarining o‘rtacha soni 20 nafar va undan ko‘pni tashkil etadigan 84 ta korxona, tashkilot va muassasalarda 2024-yil uchun 7 foizdan ortiq bo‘lmagan miqdorda - jami 173 ta ish o‘rinlarini, shu jumladan:

o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek, ko‘p bolali oilalarning ota-onalar toifasi uchun 16,8 foiz 29 (nafar);

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar, Mehribonlik uyining bitiruvchilari, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari toifasi uchun 45,6 foiz 79 (nafar);

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslartoifasi uchun 5,8 foiz 10 (nafar);

nogironlar bo‘lgan shaxslar toifasi uchun 9,3 foiz 16 (nafar);

pensiyaoldi yoshidagi shaxslar toifasi uchun 2,9 foiz 5 (nafar);

jazoni o‘tash muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar toifasi uchun 7,5 foiz 13 (nafar);

odam savdosi jinoyatidan jabrlangan shaxslar toifasi uchun 1,7 foiz 3 nafar;

atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun 10,5 foiz 18 nafar ni tashkil etadi.

3. Ushbu toifaga mansub shaxslar uchun ish o‘rinlari sanitariya-gigiyena me’yorlariga va xodim o‘z mehnat majburiyatlarini to‘siqsiz bajarishini ta’minlaydigan mehnat sharoitlariga, shu jumladan, quyidagilarga muvofiq bo‘lishi kerak:

o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek, ko‘p bolali oilalarning ota-onalar toifasi uchun bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha majburiyatlar bajarilishini birga qo‘shib olib borish imkonini beruvchi ishning moslashuvchan jadvaliga ega bo‘lganligini hisobga olgan holda ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar, “Mehribonlik uyi”ining bitiruvchilari, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari toifasi uchun-ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar toifasi uchun - ularning professional tayyorgarligiga mos bo‘lgan ish o‘rinlari;

nogironligi bo‘lgan shaxslar toifasi uchun - o‘tkazilgan va xodimga ularning sog‘ligi holatini va mehnat faoliyatiga to‘g‘ri kelmaydigan belgilangan zidliklar hisobga olgan holda mehnat operatsiyalarini to‘siqsiz bajarish imkonini beradigan ish o‘rinlari;

pensiya oldi yoshidagi shaxslar toifasi uchun - ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan, yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

jazoni o‘tash muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar toifasi uchun - ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

odam savdosi jinoyatidan jabrlangan shaxslar toifasi uchun - ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

og‘ir turmush sharoitidagi xotin-qizlar uchun - ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari.

4. Ish o‘rinlarini band qiluvchi korxona va tashkilotlar rahbarlariga; O‘zbekiston Respublikasi **“Aholi bandligi to‘g‘risida”**gi 642-sonli Qonun va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan **“Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi Nizomga (keyingi o‘rinlarda - Nizom deb yuritiladi) muvofiq ushbu qarorning ilovasida ko‘rsatilgan ish o‘rinlari tashkil etilishini ta’minlasin.

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ish bilan ta’minlash uchun tashkilot va korxonalar 2023-yil yakunlanishidan 10 kun oldin band qilingan ish o‘rinlari umumiy miqdorining kamida 25 foizi https://my.mehnat.uz/ web sayti orqali zaxiralanib qo‘yilishini

ta’minlasin, shuningdek, bu haqda yil boshlanguniga qadar tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini tumandagi tashkilot va korxonalar https://my.mehnat.uz/web sayti orqali belgilangan ish o‘rinlarini zaxiralanganligi to‘g‘risida xabardor qilsin.

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini https://my.mehnat.uz/ web sayti orqali zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan 2024-yilning 10-aprel sanasiga qadar qolgan 75 foizini yaratgan holda tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini 10 kun muddatdan kechikmaganhttps://my.mehnat.uz/ web sayti orqali ish o‘rinlari zaxiralanganligi to‘g‘risida xabardor qilsin.

Tashkilot har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunigacha tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga Nizomning 5-ilovasiga muvofiq shakl bo‘yicha muhtojlarni ishga joylashtirish to‘g‘risida muntazam ravishda axborot taqdim etib borsin.

Tashkilot tomonidan ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlari https://my.mehnat.uz/ web sayti orqali tayyorligi to‘g‘risida axborot taqdim etilmasligi, zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan soni hisobiga ishga joylashtirish uchun amalda yaratilmaganligituman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi tomonidan tuman hokimining tegishli qarori ijrosi bajarilmasligi sifatida qayd etilsin.

5. Tuman hokimining ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilot va korxonalarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlik belgilanishi qayd etilsin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining **“O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiyava grantlar ajratish tartibi to‘g‘risidanizomni tasdiqlash haqida”**gi buyrug‘iga (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 31-mayda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3163) asosan ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida subsidiya ajratilishi tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi zimmasiga yuklatilsin.

7. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i (S.Baxronov) mazkur qarorni o‘n kun muddatda qarorning ilovasida ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlariga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan o‘z nazoratni ta’minlasin.

8. Mazkur qaror e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb saytiga joylashtirilsin.

9. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish **tuman hokimining birinchi o‘rinbosari** zimmasiga yuklatilsin.

10. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi v.v.b **Sh.Zayniyev**

Karmana tuman hokimining
2023-yil 14-noyabrdagi
213-5-71-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Karmana tumani bo‘yicha Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish maqsadida 2024-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish to‘g‘risida ma’lumot

№	Ish o‘rini zahiralash belgilangan korxona tashkilot nomi	Korxona tashkilot STIR (STIR aniq bo‘lishi shart)	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlar soni	Jami zahiralanishi belgilangan ish o‘rinlarining soni	Shundan							
					14 yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz ota, yolg‘iz onalar va ko‘p bolali oilalar uchun	Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarini tamomlagan, keyin kasbni egallagan yoshlar, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun	Safarbarlik chaqiriq zahirasida xizmatni o‘tagan va muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun	Nogironlar uchun	Pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun	Jazoni o‘tash muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun	Odam savdosi qurboni uchun	Atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun
1	1-maktab	203157682	92	2	1	1	0	0	0	0	0	0
2	2-maktab	203157699	144	3	1	1	0	1	0	0	0	0
3	3-maktab	206864062	114	2	0	2	0	0	0	0	0	0
4	4-maktab	206864079	125	2	0	1	0	0	0	0	0	1
5	5-maktab	203157707	131	2	0	1	0	1	0	0	0	0
6	6-maktab	206864086	83	2	0	1	0	1	0	0	0	0
7	7-maktab	206864094	88	2	0	1	0	1	0	0	0	0
8	8-maktab	206864102	95	2	0	2	0	0	0	0	0	0
9	9-maktab	206864119	86	2	1	1	0	0	0	0	0	0
10	10-maktab	203810796	122	2	0	2	0	0	0	0	0	0
11	11-maktab	206864126	76	2	0	1	0	1	0	0	0	0
12	12-maktab	206864134	80	2	1	1	0	0	0	0	0	0
13	13-maktab	206864141	113	2	0	1	1	0	0	0	0	0
14	14-maktab	206864158	112	2	1	1	0	0	0	0	0	0
15	15-maktab	203157714	97	1	0	1	0	0	0	0	0	0
16	16-maktab	206864165	56	1	0	1	0	0	0	0	0	0
17	17-maktab	204961410	70	1	0	1	0	0	0	0	0	0
18	18-maktab	206864173	61	1	0	1	0	0	0	0	0	0
19	19-maktab	206864180	71	1	0	1	0	0	0	0	0	0
20	20-maktab	206864197	75	1	0	1	0	0	0	0	0	0
21	21-maktab	206864205	103	1	0	1	0	0	0	0	0	0
22	22-maktab	206864213	84	2	1	1	0	0	0	0	0	0

23	23-maktab	206864220	38	1	0	1	0	0	0	0	0	0
24	24-maktab	206864237	46	1	0	1	0	0	0	0	0	0
25	25-maktab	206864244	40	1	0	1	0	0	0	0	0	0
26	26-maktab	206864252	47	1	0	1	0	0	0	0	0	0
27	27-maktab	206864269	84	1	0	1	0	0	0	0	0	0
28	28-maktab	206864276	86	1	0	1	0	0	0	0	0	0
29	29-maktab	207130248	44	1	0	1	0	0	0	0	0	0
30	30-maktab	207231651	105	2	0	2	0	0	0	0	0	0
31	31-maktab	305062884	46	1	0	1	0	0	0	0	0	0
32	1-MTT	207048664	28	1	0	0	0	1	0	0	0	0
33	2-MTT	207048640	54	1	0	1	0	0	0	0	0	0
34	3-MTT	207003032	59	1	1	0	0	0	0	0	0	0
35	4-MTT	207048657	43	1	0	1	0	0	0	0	0	0
36	5-MTT	207048689	45	1	0	1	0	0	0	0	0	0
37	6-MTT	207026201	68	1	1	0	0	0	0	0	0	0
38	7-MTT	207048672	44	1	0	1	0	0	0	0	0	0
39	8-MTT	207086397	35	1	1	0	0	0	0	0	0	0
40	9-MTT	207086405	41	1	1	0	0	0	0	0	0	0
41	11-MTT	207086420	45	1	0	1	0	0	0	0	0	0
42	12-MTT	207092010	41	1	0	1	0	0	0	0	0	0
43	13-MTT	207086437	35	1	0	1	0	0	0	0	0	0
44	14-MTT	207086452	42	1	0	1	0	0	0	0	0	0
45	15-MTT	207086469	33	1	0	1	0	0	0	0	0	0
46	16-MTT	207046422	44	1	1	0	0	0	0	0	0	0
47	17-MTT	207138670	43	1	1	0	0	0	0	0	0	0
48	18-MTT	207246750	30	1	0	1	0	0	0	0	0	0
49	19-MTT	207277475	27	1	0	1	0	0	0	0	0	0
50	20-MTT	207277483	25	1	0	1	0	0	0	0	0	0
51	21-MTT	305994707	25	1	0	1	0	0	0	0	0	0
52	22-MTT	207086569	26	1	0	1	0	0	0	0	0	0
53	23-MTT	306001904	32	1	0	1	0	0	0	0	0	0
54	24-MTM	305974343	35	1	0	0	0	0	1	0	0	0
55	25-MTT	207299163	23	1	0	1	0	0	0	0	0	0
56	26-MTT	207309362	20	1	1	0	0	0	0	0	0	0
57	27-MTT	305309458	21	1	1	0	0	0	0	0	0	0
58	28-MTT	205962148	23	1	0	0	0	1	0	0	0	0
59	29-MTT	310101858	29	1	0	1	0	0	0	0	0	0
60	25-son maxsus maktab internat	200035307	207	2	1	0	0	1	0	0	0	0
61	Xamza nomli 2-son bolalar musiqa maktabi	203165974	51	1	0	1	0	0	0	0	0	0
62	Kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti	200006104	104	2	1	1	0	0	0	0	0	0
63	Viloyat "Barkamol avloq" bolalar markazi	202623720	21	1	0	1	0	0	0	0	0	0

64	Karmana tuman madaniyat bo`limi	200035346	50	2	0	0	0	1	0	0	1	0
65	Maktabgacha va maktab ta`limi bo`limi	200035267	47	1	0	1	0	0	0	0	0	0
66	Karmana tuman "Bolalar va o`smirlar sport maktabi"	203810789	71	1	0	0	0	0	1	0	0	0
67	Karmana tuman tibbiyot birlashmasi	200035250	1394	25	5	5	0	4	0	3	0	8
68	Navoiy viloyat Oftalmologiya shifoxonasi	200035425	47	1	0	0	0	0	0	1	0	0
69	Karmana tuman SEOM	200035299	63	2	1	0	0	0	0	1	0	0
70	Karmana tuman Veterinariya bo`limi	200035361	43	1	0	1	0	0	0	0	0	0
71	Navoiy viloyat Axborot resurs markazi	206831547	44	1	1	0	0	0	0	0	0	0
72	Navoiy viloyat Tarixiy o`lkashunoslik muzeyi	203837113	20	1	0	1	0	0	0	0	0	0
73	Obodonlashtirish boshqarmasi	203005619	167	8	1	1	0	2	1	1	0	2
74	Karmana tuman YFUK	200034102	153	5	0	2	2	0	0	0	1	0
75	"NAVOIY ISSIQLIK ELEKTR STANSIYASI" AJ	200850647	1498	15	0	10	2	0	0	0	0	3
76	Navoiy viloyat quyi Zarafshon ITXB qoshidagi	202198625	246	7	1	1	1	1	1	1	1	0
77	"Quyi Zarafshon Irrigatsiya" boshqarmasi	200035464	56	1	0	0	1	0	0	0	0	0
78	"KARMANADAVSUVMAXSUS PUDRAT" DUK	206958561	83	1	0	0	1	0	0	0	0	0
79	"NAVOIYDAVSUVMAXSUS PUDRAT" DUK	206958585	73	1	0	0	0	0	1	0	0	0

80	**Karmana tuman "SUVOQOVA" ishlab chiqarish bo`limi**	**300024824**	**73**	**2**	**0**	**1**	**1**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**
81	**Karmana kasb-hunar maktabi**	**200035314**	**73**	**1**	**1**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**
82	**Navoiy axborot-texnologiyalari texnikumi**	**308738958**	**31**	**1**	**1**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**
83	**Do`stlik agrofirmasi**	**308450922**	**460**	**12**	**1**	**1**	**1**	**0**	**0**	**6**	**0**	**3**
84	**Navoiy yo`l Ko`kalam UK**	**305183988**	**36**	**2**	**1**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**	**1**
			8741	**173**	**29**	**79**	**10**	**16**	**5**	**13**	**3**	**18**